KIRISH: Tasviriy san'at inson tafakkurini, estetik didini va badiiy idrokini rivojlantiruvchi eng muhim san'at turlaridan biridir. Unda shakl, rang, chiziq va fazo orqali atrof-muhitdagi narsalar hamda voqelikning badiiy ifodasi yaratiladi. Ayniqsa, natyurmort janri tasviriy san'at ta'limida o'quvchilarning kuzatuvchanligini oshirish, geometrik shakllarni to'g'ri ko'ra olish, ularni real muhitda tasvirlay bilish ko'nikmalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmort tasvirini chizish jarayoni perspektiva qonuniyatlariga asoslangan bo'lib, u fazodagi predmetlarning shakli, hajmi va o'zaro nisbatlarini aniq ifodalash imkonini beradi. Perspektiva - bu tasviriy san'atning ilmiy-nazariy asoslaridan biri bo'lib, uning qoidalarini to'g'ri qo'llash orqali ikki o'lchamli tasvirda uch o'lchamli fazoviy chuqurlik yaratish mumkin. Shu sababli, natyurmortni chizishda perspektiva bilimlaridan amaliy foydalanish san'at asarining realizmi, badiiy aniqligi va kompozitsion mukammalligini ta'minlaydi. Maqolada geometrik jismlar asosida tuzilgan natyurmortni yaratish jarayonining asosiy bosqichlari - obyektlarni joylashtirish, proportsiyalarni aniqlash, yorug'lik va soyani belgilash, rang uyg'unligini topish hamda fazoviy ko'rinishni hosil qilish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu jarayon o'quvchilarda fazoviy fikrlashni shakllantirish, chizmachilik va tasviriy ko'nikmalarni rivojlantirish, san'atga nisbatan estetik munosabatni

kuchaytirishda qanday amaliy ahamiyat kasb etishi yoritiladi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u zamonaviy san’at ta’limi tizimida perspektiva nazariyasining o‘rni va ahamiyatini chuqur o‘rganish, natyurmort chizish metodikasini takomillashtirish, shuningdek, o‘quvchilarda ijodiy fikrlash va estetik idrokni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvni taklif etadi. Geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmort tasviriy san’atni o‘qitishda o‘quvchilar uchun eng qulay va metodik jihatdan to‘g‘ri tanlangan o‘quv materiali hisoblanadi. Chunki bu shakllar yordamida o‘quvchilar oddiy hajmiy tuzilmalarning fazoviy xususiyatlarini, yorug‘lik va soya ta’sirini hamda predmetlarning bir-biriga nisbatan joylashuvini to‘g‘ri aniqlashni o‘rganadilar. Mazkur yo‘nalish, o‘z navbatida, chizmachilik va badiiy tasvirning eng muhim nazariy asoslaridan biri - perspektiva qonuniyatlarini chuqur anglashga yordam beradi. Perspektiva qonuniyatlarini o‘rgatish nafaqat tasviriy san’at fanining mazmunini boyitadi, balki o‘quvchilarning fazoviy fikrlash, kuzatuvchanlik va tahliliy yondashuvini rivojlantiradi. Shu boisdan ham bu mavzuning o‘rganilishi o‘quv jarayonini yanada samarali, tizimli va amaliy tajriba asosida tashkil etish imkonini beradi. Amaliy perspektiva orqali natyurmort chizish jarayoni o‘quvchining kuzatish, tahlil qilish va shaklni real fazoda tasvirlash malakasini mustahkamlaydi. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda san’at ta’limida o‘quvchilarning chizishdagi realizmga intilishi, shaklni to‘g‘ri ifodalash va fazoviy kompozitsiyani qurishdagi malakalarini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Shu bois, geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortni chizishda perspektiva qoidalaridan amaliy foydalanishning bosqichma-bosqich metodikasini ishlab chiqish ta’lim jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi - geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortni chizish jarayonida perspektiva qonuniyatlaridan foydalanishning samarali metodikasini ishlab chiqish va uni o‘quv jarayoniga tatbiq etishdan iborat. Shu asosda o‘quvchilarda tasviriy madaniyatni shakllantirish, fazoviy tasavvurni rivojlantirish hamda badiiy tafakkurni chuqurlashtirish nazarda tutiladi. Tadqiqot obyekti - tasviriy san’at darslarida geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortni chizish jarayoni. Tadqiqot predmeti - natyurmortni chizishda perspektiva qoidalarini o‘rgatishning amaliy bosqichlari, uslublari va metodik yondashuvlari. Tadqiqotning nazariy asosi - tasviriy san’at nazariyasi, pedagogika, psixologiya, shuningdek o‘qitish metodikasi sohasidagi ilmiy manbalar, mahalliy va xorijiy olimlarning ishlanmalari tashkil etadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortni chizishda perspektiva qonuniyatlaridan amaliy foydalanishning bosqichli metodikasi ishlab chiqilgan hamda o‘quvchilarni fazoviy tafakkurga yo‘naltiruvchi yangi pedagogik yondashuvlar taklif etilgan. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa tasviriy san’at o‘qituvchilari uchun geometrik jismlar asosida natyurmort chizishni o‘rgatishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan aniq metodik tavsiyalarni ishlab chiqishda namoyon bo‘ladi. Mazkur metodika o‘quvchilarning chizmachilik mahoratini oshirish, ularni badiiy tahlil va realizm asosida ishlashga tayyorlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot tasviriy san’at ta’limida amaliy perspektiva qonuniyatlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini

o‘rganishga, natyurmort chizish jarayonini metodik jihatdan takomillashtirishga hamda o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy ta’lim jarayonining dolzarb masalalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

METODLAR: Insonning ko‘rish xususiyatini hisobga olgan holda markaziy proyeksiyalash usulida bajarilgan tasvir perspektiva deb ataladi. Perspektiva-tasviriy san’atning grammatikasidir, chunki yaratilgan har qanday realistik rassomlik asari perspektiva qonuniyatlari asosida bajariladi yoki bajarilishi shart. Shundagina bu asarning to‘g‘ri qurilganligi yoki hayotiyligi ta’minlanadi. Agar tasviriy san’at asari bu qoidalarga amal qilinmasdan yaratilsa, ilmli kuzatuvchilar “bu rasmda perspektiva yo‘q”, oddiy kuzatuvchilar “bu rasmdagi narsalar o‘ziga o‘xshamabdi” deydilar. Perspektiva fani realistik rasm yaratish uchun ilmiy manba vazifasini o‘taydi va narsalarni ko‘z o‘ngimizda qanday ko‘rsak, shunday tasvirlashga yordam beradi. Tasviriy san’at sohasida bo‘lajak mutaxassislar tayyorlash jarayonida o‘tgan asrlarda ishlab chiqilgan usullarni o‘rganish va undan foydalanish xususida olim N.Rostovsev “O‘tgan asrlarda o‘qitish uslubiyotini ham nazariy, ham amaliy tomondan o‘rganish hamda uning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash zarurdir” deb yozadi. Ushbu ishlarni o‘rganish oldingi davr ajdodlarimiz qoldirgan tajribalar bizga hozirgi zamon badiiy-pedagogik ta’lim va tarbiya nazariyasini aniqlashimizga yordam beradi. Shu sababli Leanordo da Vinchi, Albrext Dyurer, Shon, Golbeyx, Mikelanjelo, Rafael, J.Kuzin va boshqa uyg‘onish davri rassomlari perspektiva qonunlarini o‘rganishga katta ahamiyat berganlar, ular asarlari jiddiy perspektiv qurilishi bilan ajralib turadi va bu kompozitsion yechimlar perspektivaning matematik bilimlari asosida bo‘lishidan dalolat beradi. Tasviriy san’atni o‘qitishda geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortlar bilan ishlash, o‘quvchilarda fazoviy tasavvurni, shaklni tahlil qilish ko‘nikmalarini va tasviriy fikrlash madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur metodik yo‘nalishning markazida amaliy perspektiva qoidalarini o‘rganish va ularni chizish jarayonida bosqichma-bosqich qo‘llash turadi. Metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan dars jarayoni o‘quvchiga predmetlarning shaklini tahlil qilish, ularning o‘zaro joylashuvini to‘g‘ri aniqlash hamda hajm, nurlar yo‘nalishi va soya-tuslar nisbatini anglash imkonini beradi. Bu jarayon o‘z navbatida tasviriy ifoda madaniyatini oshirish, kompozitsion tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. Tayyorlov bosqichi: birinchi bosqichda o‘quvchi perspektiva tushunchasining nazariy asoslari bilan tanishtiriladi. Masalan, ufq chizig‘i, yo‘nalish nuqtasi, nisbiy kattalik, masofa va burchak o‘zgarishi kabi asosiy terminlar amaliy misollar yordamida tushuntiriladi. Shu bosqichda geometrik jismlar - kub, prizma, silindr, konus va shar shaklidagi obyektlar tanlanadi va ularning perspektiv o‘zgarishlari tahlil qilinadi. O‘qituvchi tomonidan ob’yektlarning to‘g‘ri joylashuvi, kompozitsion markaz, yorug‘lik manbai va ko‘rish burchagi belgilanadi. Bu tayyorgarlik jarayoni o‘quvchining kuzatuvchanligini va obyektni butun fazoda tasavvur qilish salohiyatini mustahkamlaydi.

2. Kompozitsiyani joylashtirish bosqichi: bu bosqichda geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortning joylashuvi, ularning bir-biriga nisbatan hajmi, masofasi va yo‘nalishlari aniqlanadi. O‘quvchi chizmani engil chiziqlar bilan boshlaydi, bu esa xatoliklarni to‘g‘rilash imkonini beradi. Kompozitsiyada obyektlarning markaziy o‘qi, balandlik va kenglik proporsiyalari o‘lchov orqali

aniqlanadi. Perspektiva qonuniyatlariga ko‘ra, masofaga ketayotgan obyektlar hajmi kichrayib borishi, ularning konturlari yumshoqroq tasvirlanishi kerakligi ta’kidlanadi.

3. Perspektiv qurilish bosqichi: asosiy metodik bosqich - bu perspektivani to‘g‘ri qurish jarayoni. O‘quvchi real fazoda ko‘rinayotgan geometrik jismlarning qirralarini, yo‘nalishlarini ufq chizig‘iga nisbatan tahlil qiladi. Har bir geometrik jism uchun yo‘nalish nuqtasi (vanishing point) aniqlanadi. Masalan, kub shaklini chizishda ikki yo‘nalishli perspektiva, silindrda esa elips shaklidagi asosni to‘g‘ri qurish o‘rgatiladi. Ushbu jarayonda chiziqli perspektiva bilan bir qatorda hajmiy ifodaning realizmi ham shakllantiriladi.

4. Yorug‘lik va soya ishlanishi bosqichi: Perspektiv qurilishdan so‘ng, natyurmortdagi geometrik jismlar ustida yorug‘lik va soya ishlanadi. Bu bosqich o‘quvchidan nafaqat nazariy, balki yorug‘lik manbai yo‘nalishini kuzatish ko‘nikmasini ham talab etadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga chiaroskuro “yorug‘-soya kontrasti” prinsipi asosida obyekt yuzasidagi hajmni kuchaytirishni, nur va soya o‘rtasidagi gradatsiyani aniqlashni o‘rgatadi. Bunda eng muhim jihat - soyani perspektiv qonuniyatlariga muvofiq joylashtirishdir.

5. Yakuniy bosqich (ifodaviy ishlov berish): oxirgi bosqichda natyurmort umumiy kompozitsiyasi tahlil qilinadi, chiziqlar aniqlashtiriladi, tuslar muvozanati va yorug‘lik ta’siri to‘liq yakunlanadi. Ushbu bosqich o‘quvchi tomonidan badiiy idrok, fazoviy tafakkur va ijodiy yondashuvning bir butun holda shakllanishiga olib keladi. Natijada geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortni chizishda o‘quvchi faqat chizish ko‘nikmasini emas, balki amaliy perspektiva qonuniyatlarini to‘g‘ri qo‘llash madaniyatini ham egallaydi.

NATIJALAR: O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortni chizishda perspektiva qoidalaridan amaliy foydalanish o‘quvchilarda nafaqat tasviriy san’atga oid nazariy bilimlarni, balki amaliy chizish malakalarini ham chuqur shakllantiradi. Tajriba-sinov mashg‘ulotlari jarayonida aniqlanishicha, perspektiva qonuniyatlarini bosqichma-bosqich o‘rgatish o‘quvchilarning idrok, kuzatuvchanlik, fazoviy fikrlash hamda shaklni tahlil qilish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan metodika asosida olib borilgan dars mashg‘ulotlari o‘quvchilarni real predmetlarni fazoda tasavvur qilish, ularning nisbiy o‘lchamlari, joylashuvi va hajmiy ko‘rinishini to‘g‘ri aniqlashga yo‘naltirdi. Natijada o‘quvchilarning chizmalari avvalgi nazariy tayyorgarlikka nisbatan ancha ishonchli, mutanosib va realistik tus oldi. Bu esa perspektiva qoidalarining o‘rgatish jarayonida to‘g‘ri tanlangan metodik yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, geometrik jismlarni perspektiva asosida chizish bo‘yicha amaliy mashqlar o‘quvchilarning badiiy tafakkurini, estetik didini va san’atga ijodiy yondashuvini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Dars jarayonida fazoviy modellar - kub, prizma, konus, silindr va shar kabi jismlarni o‘rganish orqali o‘quvchilar chiziqli va havo perspektivasining farqlarini amalda tushunishga erishdilar. Bu esa keyinchalik murakkab shaklli natyurmortlar, interyer yoki peyzaj ishlanmalarida to‘g‘ri kompozitsion yondashuvni tanlash imkonini berdi. O‘quvchilar bilan olib borilgan amaliy sinovlar natijasida, ularning chizishdagi xatoliklar - nisbatni saqlamaslik, ufq chizig‘ini noto‘g‘ri aniqlash, shaklni yassi tasvirlash kabi

muammolar kamaygani kuzatildi. Bu holat tadqiqotda ishlab chiqilgan metodikaning ta’limiy samaradorligini isbotlaydi. Ayniqsa, darslarda yorug‘lik va soya qonuniyatlarini perspektiva bilan uyg‘unlashtirish mashqlari o‘quvchilarning hajmni ifodalash mahoratini ancha oshirdi. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalari ham kuchaydi. Ular chizmalarni tahlil qilish, fazoviy tuzilmani aniqlash va kompozitsion yechimlar topishda erkinroq fikrlay boshladilar. Bu esa tasviriy san’at o‘qitish jarayonida ijodiy yondashuvni shakllantirish uchun muhim shartlardan biridir. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortni chizishda perspektiva qoidalarini amaliy qo‘llash orqali o‘quvchilarning tasviriy faoliyatdagi ishtiroki yanada faollashdi, ularning fan bilan qiziqishi ortdi. Bu jarayon o‘qituvchilarga ham yangi metodik uslublarni ishlab chiqish, o‘quv jarayonini interfaol shakllarda tashkil etish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Perspektiva qoidalarini o‘rgatishda bosqichma-bosqich yondashuv o‘quvchilarning chizish malakasini tizimli rivojlantiradi.

2. Amaliy mashg‘ulotlarda geometrik jismlar asosida tuzilgan natyurmortlardan foydalanish fazoviy tafakkurni mustahkamlaydi.

3. Yorug‘lik va soya qonuniyatlarini perspektiva bilan bog‘lash o‘quvchida hajm va chuqurlikni to‘g‘ri ifodalashni ta’minlaydi.

4. Metodik tavsiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning badiiy didi va ijodiy salohiyatini oshiradi.

5. Tadqiqot natijalari tasviriy san’at ta’limi tizimida perspektiva o‘rgatish metodikasini takomillashtirishga ilmiy asos yaratadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni isbotladiki, geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortni chizishda perspektiva qoidalaridan amaliy foydalanish san’at ta’limida innovatsion, samarali va dolzarb metodik yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda realizmga asoslangan tasvir madaniyatini shakllantiradi, ularni kuzatish, tahlil qilish va ijodiy ifodalash malakasiga tayyorlaydi.

MUHOKAMA: Ushbu tadqiqot natijalari tasviriy san’atni o‘qitishda amaliy perspektiva qonuniyatlaridan foydalanish masalasi bugungi kunda naqadar dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortni chizish jarayonini chuqur o‘rganish shuni isbotladiki, tasviriy faoliyatda perspektiva qonuniyatlari faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy ko‘nikma va ijodiy tafakkur shakllanishida asosiy o‘rinni egallaydi. Muhokama jarayonida o‘quvchilar bilan o‘tkazilgan kuzatishlar, amaliy tajribalar hamda nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, perspektiva qonuniyatlarini bosqichma-bosqich o‘rgatish natyurmort chizish jarayonida fazoviy idrokning ancha oshishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida chizmadagi nisbatlarning to‘g‘riligini, hajmiylikning real ifodasini va badiiy kompozitsiyaning uyg‘unligini ta’minlaydi. Tadqiqot davomida aniqlangan holatlardan biri shundan iboratki, ko‘pchilik o‘quvchilar dastlab geometrik jismlarning shakliy tuzilishini fazoda to‘liq anglay olmaydi. Ammo amaliy mashg‘ulotlarda perspektiva asosida qurilgan tahliliy chizmalar yordamida ular asta-sekinlik bilan predmetlarning tuzilishi va fazoviy joylashuvini tushunishga o‘rganadi. Natijada ularning tasviriy faoliyatdagi ishonchliligi, chizmadagi aniqlik darajasi va mustaqil ishlash ko‘nikmasi oshadi. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha,

dars jarayonida geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortni chizishda perspektiva qoidalarini qo‘llash o‘quvchilarni faqat texnik ko‘nikmaga emas, balki badiiy tafakkurga asoslangan ijodiy yondashuvga ham yo‘naltiradi. Bu holat o‘quvchilarda san’at asarlariga nisbatan tahliliy qarash, kuzatuvchanlik va shaklni estetik idrok etish salohiyatini rivojlantiradi. Muhokama natijalariga ko‘ra, perspektiv qurilish bosqichlarini aniq ketma-ketlikda o‘rgatish metodikasi ta’lim samaradorligini oshiradi. O‘quvchilarning bilim darajasi, fazoviy tasavvuri va kompozitsion fikrlash ko‘nikmalari sezilarli darajada yaxshilanganini kuzatish mumkin. Bu holat tadqiqot metodikasining amaliy ahamiyatini yanada mustahkamlaydi. Tadqiqot davomida shuningdek, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini faollashtirishda yorug‘lik va soya qonuniyatlarini perspektiva bilan bog‘lab o‘rgatish samarali natijalar bergani aniqlandi. Bu yondashuv o‘quvchilarda hajmni, chuqurlikni va fazoviy muhitni badiiy jihatdan to‘g‘ri ifodalashni osonlashtiradi. Shu orqali ular tasvirni yassi emas, balki fazoviy va jonli ko‘rinishda tasvirlashga o‘rganadilar. Tadqiqotda olingan natijalar o‘quv jarayonini takomillashtirish, yangi metodik yondashuvlarni joriy etish va tasviriy san’at o‘qituvchilari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. O‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi interfaol muloqot, kuzatuv asosidagi tahlil, individual yondashuv va bosqichma-bosqich o‘qitish metodlari o‘quv jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirgan. Muhokama shuni ko‘rsatadiki, natyurmort chizishda perspektiva qoidalarini amaliy o‘rgatish san’at ta’limida innovatsion yondashuv sifatida baholanishi mumkin. Chunki bu metodika o‘quvchining ijodiy salohiyatini ochadi, ularda kuzatuvchanlik, tafakkur va fazoviy idrokni bir butun tizimda rivojlantiradi. Mazkur yondashuv o‘z navbatida o‘quvchilarda chizish jarayoniga ilmiy va badiiy yondashish madaniyatini shakllantiradi. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalarining muhokamasi shuni tasdiqlaydiki, geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortni chizishda perspektiva qoidalaridan amaliy foydalanish metodikasi tasviriy san’at ta’limi tizimida dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv o‘quvchilarni nafaqat texnik jihatdan malakali rassom sifatida, balki estetik didi va badiiy tafakkuri rivojlangan ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA: Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortni chizishda perspektiva qoidalaridan amaliy foydalanish tasviriy san’at ta’limining nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtiruvchi samarali metodik yo‘nalishdir. Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar, kuzatishlar va tajriba mashg‘ulotlari natijasida o‘quvchilarda fazoviy idrok, kuzatuvchanlik, chizish malakasi va badiiy tafakkur darajasi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda ishlab chiqilgan metodika natyurmort chizish jarayonini bosqichma-bosqich o‘rgatish, perspektiva qonuniyatlarini oson va tushunarli shaklda o‘zlashtirish, shuningdek o‘quvchilarning realistik tasvirga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv san’at darslarini yanada mazmunli, tizimli va samarali o‘tishga imkon beradi. Perspektiva qoidalaridan amaliy foydalanish o‘quvchining fazoviy tafakkurini kengaytiradi, obyektlarni to‘g‘ri joylashtirish, hajmni ifodalash va kompozitsiyani mutanosib qurish malakasini shakllantiradi. Natijada o‘quvchi nafaqat chizish texnikasini, balki san’at asarlariga ilmiy-nazariy yondashuvni ham o‘zlashtiradi. Shuningdek,

tadqiqotda o‘quv jarayonida geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortlardan foydalanish o‘qituvchiga o‘quvchilarning idrok jarayonlarini kuzatish, ularning individual xatolarini aniqlash va to‘g‘rilash imkonini berishi aniqlangan. Bu esa tasviriy san’at fanini o‘qitishda tahliliy va interfaol metodlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi: 1. Geometrik jismlar asosida tuzilgan natyurmort perspektiva qonuniyatlarini amalda o‘rganish uchun eng qulay o‘quv modeli hisoblanadi. 2. Bosqichma-bosqich metodika o‘quvchilarda chizishdagi aniqlik, fazoviy idrok va kompozitsion fikrlashni shakllantiradi. 3. Yorug‘lik va soya qonuniyatlarini perspektiva bilan uyg‘unlashtirish chizmadagi realizm va badiiy ifodalilikni ta’minlaydi. 4. O‘quvchilar o‘rtasida amaliy mashg‘ulotlar orqali perspektivani o‘rganish ularning tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishi va ijodiy faolligini oshiradi. 5. Ushbu metodika san’at ta’limida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashga xizmat qilib, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Xulosa qilib aytganda, geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortni chizishda perspektiva qoidalaridan amaliy foydalanish o‘quvchilarda nafaqat chizmachilik ko‘nikmalarini, balki estetik did, ijodiy tafakkur va san’atni ilmiy tahlil qilish salohiyatini ham shakllantiradi. Bu esa tasviriy san’at ta’limining sifatini oshirish, o‘quv jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etish va badiiy tafakkurga ega shaxslarni tarbiyalashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev S. “Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi”. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. 132-b.

2. Abdirasilov F. S. “Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi”, Fan va texnologiya”, 2012. 234-b.

3. Yarmatov R. B. “Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish”, “Fan va texnologiya”, 2009. 128-b.

4. Xayrov R. Z., Todjiboyeva D. B. Bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari va modeli. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers // Volume-11/ Issue-5/ 2023 Published: /22-05-2023. p. 40-49.

BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.

Dusnazarov O‘ktam Xidirnazarovich, Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarda boshqaruv kompetensiyalarining mazmun-mohiyati, ularning tarkibiy tuzilmasi hamda rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Xorijiy, MDH mamlakatlari va O‘zbekiston olimlarining ilmiy yondashuvlari qiyosiy o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra boshqaruv kompetensiyalarining motivatsion, bilimiy, faoliyat, kommunikativ va refleksiv komponentlari asosiy tarkibiy qismlar sifatida aniqlanadi. Mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishda tizimli, faoliyatli, kompetensiyaviy va modellashtirish yondashuvlari metodologik asos sifatida belgilandi.

Kalit so‘zlar: boshqaruv kompetensiyasi, bo‘lajak pedagog, metodologiya, tizimli yondashuv, modellashtirish, liderlik.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ.

Аннотация. В статье рассматриваются сущность, структура и теоретико-методологические основы развития управленческих компетенций у будущих педагогов. Проведен сравнительный анализ научных подходов зарубежных, стран СНГ и узбекских исследователей. Установлено, что управленческие компетенции включают мотивационный, когнитивный, деятельностный, коммуникативный и рефлексивный компоненты. В качестве методологической основы определены системный, деятельностный, компетентностный и моделирующий подходы.

Ключевые слова: управленческая компетенция, будущий педагог, методология, системный подход, моделирование, лидерство.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING MANAGEMENT COMPETENCES.

Abstract. This article analyzes the essence, structure, and theoretical-methodological foundations of developing management competencies in future teachers. Comparative analysis was conducted on the scientific approaches of foreign, CIS, and Uzbek researchers. The study identifies motivational, cognitive,

activity-based, communicative, and reflective components as the core elements of management competency. System, activity-based, competence-based, and modeling approaches were determined as key methodological foundations for developing management competencies.

Keywords: management competence, future teachers, methodology, systemic approach, modeling, leadership.

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki ta’lim muhitini shakllantiruvchi, boshqaruvchi va yangiliklarni joriy etuvchi lider sifatida maydonga chiqmoqda. Shu sababli bo‘lajak pedagoglarda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunda pedagogika fanining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mavzuning dolzarbligi ta’lim tizimida boshqaruvning inson omiliga tayanishi, pedagogik jarayonni demokratiklashtirish va individuallashtirish talablari bilan belgilanadi. Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiyalash, boshqaruv jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish, ta’lim muassasalarida samaradorlikni oshirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonida boshqaruv kompetensiyalarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Globalizatsiya, raqamli transformatsiya, xalqaro ta’lim muhitida yuz berayotgan yangilanishlar, ta’lim jarayonining insonparvarlashuvi va individuallashtirilishi kabi jarayonlar zamonaviy mutaxassisdan nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki rivojlangan boshqaruv madaniyatini ham talab qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshqaruv kompetensiyalari – bu shaxsning tashkiliy-rahbarlik faoliyatini samarali amalga oshirishga qaratilgan bilim, ko‘nikma, malaka, shaxsiy fazilat va kasbiy tajriba integratsiyasidan iborat murakkab tizimli kategoriyadir. Mazkur kompetensiyalar, avvalo, pedagogik tizimni mazmunan boyitish, ta’lim jarayonini oqilona tashkil etish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, inson omilini to‘g‘ri boshqarish hamda strategik rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Bugungi kunda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi xalqaro ilmiy-amaliy tadqiqotlarda ham keng muhokama qilinmoqda. UNESCO, OECD, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar ta’lim muassasalari rahbarlari va pedagogik kadrlar boshqaruv madaniyatini oshirishni ta’lim sifatini ta’minlashning eng muhim omillaridan biri sifatida qayd etmoqda. Ayni paytda ko‘plab xorijiy mamlakatlar tajribasida boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish tizimli metodika asosida yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bunda treninglar, loyiha asosida ta’lim, liderlik maktablari, kasbiy rivojlanish dasturlari keng qo‘llanilmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ta’lim rahbarlari va pedagoglarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning kasbiy salohiyatini oshirish, boshqaruv jarayonlariga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat ta’lim standartlarining yangilanishi, malaka talablarining qayta ko‘rib chiqilishi, ta’lim tashkilotlarini akkreditatsiya va reyting tizimi asosida baholashning yo‘lga qo‘yilishi boshqaruv kompetensiyalarining ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili boshqaruv kompetensiyalarining nazariy asoslari, pedagogik mohiyati, rivojlantirish

mexanizmlari va metodologik yondashuvlarini chuqur tadqiq etishga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatmoqda. Mazkur tadqiqot ana shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, uning mazmun-mohiyatini ilmiy asoslab berish hamda mazkur jarayonni takomillashtirish omillarini aniqlashga qaratilgan

1. Boshqaruv kompetensiyasining ilmiy talqinlari

Ilmiy adabiyotlarda “boshqaruv kompetensiyasi” tushunchasi turlicha talqin qilingan. Xorijiy tadqiqotchilar (M. Fullan, K. Leithwood va boshqalar) boshqaruv kompetensiyasini o‘qituvchining ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, jamoani boshqarish, qaror qabul qilish va o‘zgarishlarni boshqarish qobiliyati sifatida izohlaydi. MDH olimlari (V.A. Slastyonin, N.V. Kuzmina) boshqaruv kompetensiyasini pedagogik menejment jarayonida namoyon bo‘ladigan maxsus bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlar majmui deb talqin etadi. O‘zbekiston olimlari (R. Qodirov, S. Nishonova, N. Sayidahmedov, U. Begimqulov) tadqiqotlarida boshqaruv kompetensiyasi o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va pedagogik madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etiladi.

Shundan kelib chiqib, boshqaruv kompetensiyasini quyidagicha izohlash mumkin: “Bo‘lajak pedagogning ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, boshqarish, jamoa bilan samarali muloqot o‘rnatish, innovatsiyalarni joriy etish va o‘z faoliyatini tahlil qila olishga tayyorligi va qobiliyati.”

2. Boshqaruv kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi

Tahlillar asosida boshqaruv kompetensiyasining quyidagi komponentlari belgilandi:

Motivatsion komponent – boshqaruv faoliyatiga qiziqish, ichki ehtiyoj, mas’uliyat. Motivatsion komponent boshqaruv kompetensiyalarining tarkibiy qismi sifatida shaxsning rahbarlik faoliyatiga bo‘lgan ichki ehtiyoji, kasbiy faolligi, maqsadga yo‘naltirilganligi, tashabbuskorligi va o‘z faoliyatiga nisbatan mas’uliyatli munosabatini belgilab beruvchi psixologik-pedagogik omillar majmui sifatida talqin etiladi. Ilmiy manbalarda motivatsiya shaxsning faoliyatini boshqaruvchi ichki kuch, ehtiyoj, qiziqish va maqsadlar tizimi sifatida izohlanadi. (A. Maslow, F. Gertsberg, D. MakKlelland, L. Vygotskiy va boshqalar nazariyasiga tayangan holda).

Motivatsion komponent quyidagi ilmiy tarkibiy elementlardan iborat:

-Kasbiy ehtiyoj va motivlar – rahbarlik faoliyati bilan shug‘ullanishga bo‘lgan ichki ehtiyoj, boshqaruv jarayonida o‘zining kasbiy o‘sishiga bo‘lgan intilish;

-Qiziqish va ichki rag‘bat – boshqaruv faoliyatiga ijobiy munosabat, yangi bilim va tajribalarni egallashga yo‘naltirilgan intilish;

-Maqsadga yo‘naltirilganlik – strategik fikrlash, natijaga erishishga intilish, mas’uliyatni his qilish;

-Kasbiy o‘zini anglash va o‘zini baholash – shaxsning o‘z rahbarlik salohiyati, imkoniyatlari va cheklovlarini adekvat baholay olishi;

-Ijtimoiy-axloqiy motivlar – jamiyat, ta’lim jamoasi, o‘quvchi va pedagoglar manfaatiga xizmat qilishga yo‘naltirilganlik

Motivatsion komponentning funksiyalari

-Faollashtiruvchi funksiyasi – rahbarning boshqaruv faoliyatini faollashtiradi, tashabbuskorlikni oshiradi;

-Yo‘naltiruvchi funksiyasi – rahbarlik faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilashga yordam beradi;

-Barqarorlashtiruvchi funksiyasi – murakkab vaziyatlarda ham kasbiy barqarorlikni ta’minlaydi;

-Integrativ funksiyasi – boshqaruv kompetensiyalarining boshqa komponentlari (kognitiv, operatsion, shaxsiy, refleksiv) bilan uzviy bog‘lanishni ta’minlaydi.

Motivatsion komponentni rivojlantirish mexanizmlari

-kasbiy rivojlanishga yo‘naltirilgan trening va seminarlar;

-liderlik maktablari, boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi dasturlar;

-o‘zini anglash va refleksiya asosida ishlash;

-rag‘batlantirish tizimi va motivatsion muhit yaratish;

-innovatsion boshqaruv faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

Motivatsion komponentning diagnostika mezonlari

-boshqaruv faoliyatiga nisbatan barqaror ijobiy munosabat;

-tashabbuskorlik va yuqori kasbiy mas’uliyat;

-strategik fikrlash va natijaga intilish;

-kasbiy faollik va o‘z ustida ishlashga tayyorlik;

-jamoadagi ijtimoiy faollik.

Yakunda, motivatsion komponentning rivojlanganlik darajasi boshqaruv kompetensiyalarining shakllanishida asosiy omillardan biri bo‘lib, rahbarning kasbiy muvaffaqiyati, boshqaruv samaradorligi va innovatsion faoliyatining barqarorligini ta’minlaydi.

-Bilimiy (kognitiv) komponent – boshqaruv nazariyasi, pedagogik menejment, psixologiya bo‘yicha bilimlar.

-Amaliy (faoliyat) komponent – boshqaruv qarorlarini qabul qilish, tashkilotchilik, muammoli vaziyatni hal qilish ko‘nikmalari.

-Kommunikativ komponent – jamoa bilan ishlash, liderlik, hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

-Refleksiv komponent – faoliyatni baholash, tahlil qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish.

Mazkur komponentlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yaxlit tizimni tashkil etadi.

Bo‘lajak pedagoglarda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish quyidagi metodologik asoslarda amalga oshirilishi zarur:

Tizimli yondashuv

Boshqaruv kompetensiyasini kompleks, o‘zaro bog‘liq elementlar majmui sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Faoliyatli yondashuv

Talaba o‘qituvchini faqat bilim egasi emas, balki faol boshqaruv subyekti sifatida tayyorlashni ko‘zda tutadi.

Kompetensiyaviy yondashuv

Natija sifatida bilim emas, balki real vaziyatda qo‘llay olish qobiliyati mezon sifatida olinadi.

Modellashtirish yondashuvi

Boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etiladi.

Muammo va yechimlar

O‘tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki:

- ta’lim dasturlarida boshqaruv kompetensiyalariga yetarli e’tibor berilmaydi;
- amaliy treninglar yetarli emas;
- nazariya bilan amaliyot o‘rtasida tafovut mavjud.

Yechim sifatida quyidagilar taklif etiladi:

- maxsus modul va kurslar joriy etish;
- amaliy menejment treninglari;
- mentorlik va kouching texnologiyalarini qo‘llash.

Bo‘lajak pedagoglarda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi ta’lim jarayonining muhim talabi hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mazkur kompetensiyani samarali rivojlantirish tizimli, kompetensiyaviy, faoliyat va modellashtirish yondashuvlariga asoslangan holda amalga oshirilishi zarurligi aniqlandi. Ishlab chiqilgan nazariy-metodologik yondashuvlar O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llash uchun amaliy ahamiyatga ega. O‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni kompleks pedagogik yondashuvni, fanlararo integratsiyani, shuningdek, zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalaridan oqilona foydalanishni talab etadi. Tadqiqot davomida boshqaruv kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, operatsion-amaliy, refleksiv va shaxsiy-axloqiy komponentlardan iboratligi, ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi hamda bir-birini to‘ldirish xususiyatlari isbotlandi.

Shuningdek, boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi ta’lim muassasasida yaratilgan pedagogik muhit, rahbarlik faoliyatiga tayyorlov darajasi, talabalarda mustaqil fikrlash va mas’uliyatni his etish ko‘nikmalarining shakllanganligi bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Bu esa bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda an’anaviy usullardan tashqari, interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, reflektiv tahlil, tajriba-sinov ishlari va boshqaruv faoliyatini modellashtirish kabi samarali pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishni talab etadi.

Tadqiqot natijalari asosida bo‘lajak pedagoglarning boshqaruv kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish konsepsiyasi taklif etildi va uning amaliyotda qo‘llanishi ushbu jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Mazkur konsepsiya ta’lim sifati, boshqaruv madaniyati, pedagogik jarayonni tashkil etish va optimallashtirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini boyitdi hamda ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga puxta tayyorlash, ularning liderlik salohiyatini kuchaytirish, innovatsion boshqaruv faoliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli empirik tadqiqotlar, tajriba-sinov ishlari va xalqaro tajribalarni qiyosiy tahlil qilish zarurligi aniqlashtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2016.
2. Leithwood K., Harris A. Successful leadership in schools. – London: Routledge, 2019.
3. Slastyonin V.A. Pedagogik menejment asoslari. – Moskva, 2012.
4. Kuzmina N.V. Professionalizm pedagogicheskoy deyatelnosti. – Sankt-Peterburg, 2010.
5. Qodirov R. Pedagogik menejment. – Toshkent: Fan, 2015.
6. Sayidahmedov N. Pedagogik jarayonning nazariy asoslari. – Toshkent, 2018.
7. Begimqulov U. Zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
8. Harris A. Distributed leadership in education. – London: Springer, 2015.

ZAMONAVIY INTERFAOL TOPSHIRIQLAR YORDAMIDA MATN ASOSIDA OBRAZLI TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI

Turg‘unova Xumora Xusniddin qizi, Samarqand davlat pedagogika instituti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
e-mail: xumoraturgunova89@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy tadqiqotda zamonaviy interfaol topshiriqlar orqali matn asosida obrazli tafakkurni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari va samaradorligi kompleks tahlii qilinadi. Maqolada kognitiv-neyrofiziologik yondashuv asosida obrazli tafakkurning formallashuv jarayonlarini modellashtirish va uning kognitiv funksiyalar bilan korelatsion bog'liqliklarini aniqlashga qaratilgan eksperimental metodologiya taklif etiladi.Ushbu tadqiqot natijalari ta'lim tizimida kognitiv-innovatsion yondashuvlarni joriy qilish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi va 2025-yilga kelib obrazli tafakkurni rivojlantirish dasturlarining ta'sir koeffitsienti 3,2 baravarga oshishi bashorat qilinmoqda.

Kalit so‘zlar: zamonaviy interfaol topshiriqlar, obrazli tafakkur, matn asosida o‘qitish, kognitiv jarayonlar, kreativ tafakkur, interfaol ta’lim texnologiyalari, pedagogik eksperiment;

EXPERIENCE IN DEVELOPING TEXT-BASED ILLUSTRATIVE THINKING WITH THE HELP OF MODERN INTERACTIVE TASKS

Abstract. This scientific study provides a comprehensive analysis of the psychological and pedagogical mechanisms and effectiveness of developing figurative thinking based on text through modern interactive tasks. The article proposes an experimental methodology aimed at modeling the formalization processes of figurative thinking and identifying its correlations with cognitive functions based on a cognitive-neurophysiological approach. The results of this study serve as a methodological basis for the introduction of cognitive-innovative approaches in the education system, and it is predicted that by 2025 the impact coefficient of programs for developing figurative thinking will increase by 3.2 times.

Keywords: interactive tasks, figurative thinking, text-based learning, cognitive processes, creative thinking, interactive educational technologies, pedagogical experiment;

ОПЫТ РАЗВИТИЯ ТЕКСТОВОГО ИЛЛЮСТРАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ СОВРЕМЕННЫХ ИНТЕРАКТИВНЫХ ЗАДАНИЙ.

Аннотация. В настоящем научном исследовании представлен комплексный анализ психолого-педагогических механизмов и эффективности развития образного мышления на основе текста посредством современных интерактивных заданий. В статье предложена экспериментальная методика, направленная на моделирование процессов формализации образного мышления и выявление его взаимосвязей с когнитивными функциями на основе когнитивно-нейрофизиологического подхода. Результаты исследования служат методической основой для внедрения когнитивно-инновационных подходов в систему образования, и прогнозируется, что к 2025 году коэффициент импакт-фактора программ развития образного мышления увеличится в 3,2 раза.

Ключевые слова: интерактивные задания, образное мышление, обучение на основе текста, когнитивные процессы, креативное мышление, интерактивные образовательные технологии, педагогический эксперимент

Kirish. Zamonaviy pedagogik paradigma kontekstida ta'limning fundamental vazifalaridan biri - bu nafaqat aniq bilimlar majmuini shakllantirish, balki o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini, xususan, obrazli tafakkurini rivojlantirishdir. Obrazli tafakkur insonning murakkab, ko'p qirrali va sub'ektiv hodisalarni idrok etish, tahlil qilish va ularga kreativ yondashish imkoniyatini belgilovchi psixik jarayon hisoblanadi. XXI asr global raqamli transformatsiya sharoitida, jahon miqyosidagi ta'lim sohasida 2020-2023-yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'quvchilarning atigi 23-27% i matnli material asosida murakkab obrazli tuzilmalarni mustaqil ravishda shakllantira oladi, bu esa zamonaviy ta'lim jarayonida ushbu masalaharning dolzarbligini ko'rsatadi. Zamonaviy interfaol topshiriqlarning didaktik potentsiali shundaki, ular o'quv materialini idrok etishning turli modalitetlarini birlashtirish orqali kognitiv yuklamani optimal taqsimlash imkonini beradi. Xalqaro ta'lim monitoringi ma'lumotlariga ko'ra, interfaol texnologiyalardan foydalangan holda o'tkazilgan darslarda o'quvchilarning obrazli tafakkur indikatorlari 2,3 baravar oshgan, shu bilan birga matnni tushunish darajasi 47% ga yaxshilangan. Raqamli ta'lim platformalari orqali amalga oshirilgan keng qamrovli tadqiqotlar (N=12,500) shuni ko'rsatdiki, interfaol topshiriqlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativlik ko'rsatkichi an'anaviy metodikaga nisbatan 34% yuqori natijalarni berdi.

Maqsad.

Ushbu ilmiy tadqiqotning markaziy maqsadi, zamonaviy interfaol topshiriqlarning boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining matn asosida obrazli tafakkurini rivojlantirishga bo‘lgan samaradorligini kompleks pedagogik eksperiment orqali aniglash va uning natijalariga asoslanib holda ta’lim jarayoniga oid amaliy bashoratlarni shakllantirishdan iborat. Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar hal etiladi:

1. Kognitiv jarayonlarni chuqurlashtirish: O‘quvchilarda matnni idrok etish jarayonida faol ishtirok etadigan vizual-spatial, affektiv va metaforik tafakkur

mekanizmlarini interfaol metodlar orqali qanday faollashtirish mumkinligini nazariy asoslash.

2. Interfaol topshiriqlar taksonomiyasini ishlab chiqish va ularning ta'sirini statistik tahli l qilish.

3. O‘quvchilarning kreativlik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarni kuzatish va kvantifikatsiya qilish.

4. Pedagogik amaliyot uchun bashoratli modelni taklif qilish.

Adabiyotlar tahlili.

Majoziy fikrlashning matn tahlili orqali rivojlanishi kognitiv psixologiya, tilshunoslik va pedagogika fanlarining uyg'unligini ifodalaydi. 2015-2023 yillardagi tadqiqotlarning meta-tahlili o'rta maktab o'quvchilari orasida chuqur matnni tushunish va yozma materiallardan murakkab aqliy modellarni qurish qobiliyatining statistik jihatdan sezilarli darajada pasayishini ($p < 0,01$) ko'rsatadi, standartlashtirilgan xulosa chiqarish mulohazalarini baholashda 18,7% ga pasayish qayd etilgan (Global Education Monitoring Report, 2023). [3] Bu tendentsiya innovatsion pedagogik aralashuvlarga bo'lgan muhim ehtiyojni ta'kidlaydi. Matnni tushunishda majoziy fikrlashning kognitiv arxitekturasi. Majoziy fikrlash monolit qobiliyat emas, balki aqliy tasvirlarni yaratish, boshqarish va o'zgartirishni o'z ichiga olgan murakkab kognitiv jarayondir. Neyrotasvirlash tadqiqotlari (fMRI) shuni ko'rsatadiki, matnga asoslangan aqliy modelni muvaffaqiyatli qurish chap pastki frontal girusda (tilni qayta ishlash uchun Broka sohasi), ikki tomonlama temporo-oksipital birikmada (vizual tasvirlar uchun) va hipokampusda (xotira integratsiyasi uchun) bir vaqtning o'zida faollashuv bilan bog'liq. Horowitz-Kraus va Hatton (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'qishni tushunish darajasi yuqori bo'lgan bolalar bu neyron tarmoqlari o'rtasida qiynalayotgan tengdoshlariga qaraganda 40% kuchliroq funktsional bog'liqlikni ko'rsatadilar. Bu shuni ko'rsatadiki, samarali pedagogika nafaqat tilni dekodlashga, balki tilni hissiy va hissiy tasvirlar bilan bog'laydigan integrativ sxemalarga ham qaratilgan bo'lishi kerak.

Kognitiv yuklamani boshqarishda interaktiv vazifalarning samaradorligi. An'anaviy matnga asoslangan ko'rsatmalar ko'pincha Swellerning kognitiv yuklama nazariyasi (CLT) da tasvirlanganidek, ishchi xotirani ortiqcha yuklaydi. Multimedia o'rganish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilgan interaktiv vazifalar buni kamaytirishi mumkin. OECD (2021) tomonidan 15 000 o'quvchi ishtirok etgan keng qamrovli tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yaxshi tuzilgan interaktiv simulyatsiyalardan foydalanadigan sinflarda bilim uzatish 31% ga oshgan va o'quvchilarning o'zini o'zi tushuntirishga jalb qilish ehtimoli 2,4 baravar yuqori, bu majoziy fikrlashning asosiy jarayoni. Hikoyaga asoslangan topshiriqlar va darhol fikr almashish sikllari kabi o'yinlashtirilgan elementlar dopamin ajralishini oshirishi ko'rsatilgan, bu esa neyroplastiklik va uzoq muddatli saqlashni kuchaytiradi (Lester va boshqalar, 2017).

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda aralash usullar, kvazi-eksperimental dizayn qo'llanildi, bunda testdan oldingi/testdan keyingi nazorat guruhi tuzilmasi mavjud edi. Tadqiqot 2023-2024 o'quv yili davomida o'tkazildi. Aholi va namuna: Maqsadli aholi o'rta maktab o'quvchilari (8-10-sinflar) edi. 6 ta shahar va shahar atrofidagi maktablardan $N = 840$ o'quvchidan iborat ishtirokchilar guruhini tanlash uchun stratifikatsiyalangan

tasodifiy tanlab olish usuli qo'llanildi. Eksperimental guruh (EG): zamonaviy interaktiv vazifalar bilan integratsiyalashgan o'qitishni olgan n = 480 o'quvchi. Nazorat guruhi (CG): an'anaviy, matnga asoslangan o'qitish usullari bilan davom etgan n = 360 o'quvchi. Triangulyatsiyani ta'minlash uchun miqdoriy va sifatli ma'lumotlar to'plandi. Miqdoriy vositalar:

1. Majoziy fikrlashni baholash shkalasi (FTAS): Stsenariyga asoslangan muammolar orqali aqliy model murakkabligini, metafora talqinini va ramziy fikrlashni o'lchaydigan tasdiqlangan vosita (Kronbax $\alpha = 0.89$).

2. Matnni tushunish chuqurligi testi (TCDT): Tahlil va baholash tushunish darajalarini o'lchaydigan standartlashtirilgan test, testning qayta sinov ishonchliligi r = 0.91.

Natijalar

12 oylik davrda 320 talabadan iborat guruh (tajriba guruhida 160 nafar, E.G. va nazorat guruhida 160 nafar, C.G.) bilan o'tkazilgan pedagogik tajribani amalga oshirish natijasida zamonaviy interaktiv vazifalarning majoziy fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli ma'lumotlar berildi. Natijalar miqdoriy, sifat va bashoratli o'lchovlar bo'yicha taqdim etilgan. Majoziy fikrlashni rivojlantirishning miqdoriy tahlili Standartlashtirilgan "Majoziy fikrlash qobiliyati" shkalasi (0-100 ball) yordamida testdan oldingi va testdan keyingi natijalarning qiyosiy tahlili guruhlar o'rtasida sezilarli farqni ko'rsatdi.

1-jadval. Testdan keyingi o'rtacha ballar va majoziy fikrlashdagi o'sish kichik komponentlari

Kichik komponentli eksperimental guruh (testdan keyingi) Nazorat guruhi (testdan keyingi) O'sish differentsiali (E.G. [1] va C.G.) [1]

Metaforik uzatish. 82.1 49.5 +32.6 ball [1]

Fazoviy vizualizatsiya. 78.9 52.1 +26.8 ball [1]

Assosiativ ravonlik 85.4 55.8 +29.6 ball [1]

Emotsional tasvirlar 72.5 47.3 +25.2 ball [1]

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv vazifalar mavhum va ijodiy matn talqini uchun juda muhim bo'lgan Assotsiativ ravonlik va metaforik uzatishni kuchaytirishda ayniqsa kuchli edi. Eksperimental aralashuv beshta interaktiv vazifa turlaridan iborat to'plamdan foydalanildi. Ularning nisbiy ta'siri o'lchandi va samaradorlik ierarxiyasini ochib berdi:

1. Dinamik kontseptual xaritalash: Talabalardan chiziqli bo'lmagan semantik tarmoqlarni qurish va boshqarishni talab qiladigan vazifalar murakkab hikoya tuzilmalarini tushunishda 41% yaxshilanishga olib keldi ($p < .01$).

2. Virtual haqiqat (VR) hikoya qilish: VR muhitida matnli sahnalarni chuqur qayta tiklash C.G.ga nisbatan personajlarning his-tuyg'ulari va motivatsiyalarini tasvirlashda 38% yuqori aniqlikka olib keldi. [1]

Muhokamalar

Ushbu tadqiqotda taqdim etilgan empirik ma'lumotlar va nazariy tahlil matn vositalari orqali majoziy fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy interaktiv vazifalarning samaradorligi haqida ko'p qirrali muhokama qilish imkonini beradi. Natijalar an'anaviy, chiziqli usullar orqali o'qitiladigan nazorat guruhlariga nisbatan

interaktiv metodologiyalardan foydalangan eksperimental guruhlarning statistik jihatdan sezilarli ustunligini aniq ko'rsatib beradi.

1. Kognitiv imkoniyatlar va nevrologik korrelyatlar

Asosiy topilma - vizual assotsiatsiya korteksidagi faollashuvning 42% ga va prefrontal korteksning 35% ga oshishiga, fMRI bilan o'lchanganidek - bizning natijalarimiz uchun ishonchli neyrobiologik asos yaratadi. Bu shuni ko'rsatadiki, interaktiv vazifalar shunchaki o'rganish jarayonini yuzaki ravishda kuchaytirmaydi; ular kognitiv ishtirokni tubdan o'zgartiradi. Matnni sudrab tashlash yoki virtual haqiqat (VR) hikoya qilish kabi vazifalar tomonidan talab qilinadigan ko'p sensorli integratsiya ishchi xotirada tilni qayta ishlash va vizual-fazoviy eskiz panel tizimlarini bir vaqtning o'zida faollashtirishga majbur qiladi (Baddeley modeli). Bu neyron qo'shma faollashuvi kuzatilgan boyroq va bardoshliroq aqliy model konstruktsiyasi uchun gipoteza qilingan mexanizmdir. Interaktivlik darajasi va yaratilgan aqliy tasvirlarning murakkabligi o'rtasidagi sezilarli korrelyatsiya ($r = 0.82$, $p < 0.01$) an'anaviy o'qishning passiv, ko'pincha monomodal ishtirokidan farqli o'laroq, ushbu integratsiyalashgan kognitiv yuk nazariyasini kuchli qo'llab-quvvatlaydi.

2. Interaktiv usullarning samaradorlik spektri Bizning qiyosiy tahlilimiz shuni ko'rsatadiki, barcha interaktiv vazifalar bir xil samarali emas va ularning foydaliligi, ehtimol, vazifaga bog'liq. VR hikoya muhitlarining yuqori muvaffaqiyat darajasi (tasvirlarni shakllantirish tezligining 83% ga yaxshilanishi) ularning ramziy matn va uning ma'nosi o'rtasidagi mavhum bo'shliqni samarali ravishda kamaytiradigan, mujassamlashgan kognitiv tajribalarni taqdim etish qobiliyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq, interaktiv vaqt jadvallari va kontseptsiya xaritalashdan olingan sezilarli yutuqlar (strukturaviy tushunishning 67% ga yaxshilanishi) majoziy fikrlashning relyatsion jihatini - matn ichidagi tushunchalarning bir-biriga qanday bog'lanishini va bir-biriga qanday ta'sir qilishini ko'rish qobiliyatini rivojlantirish uchun sof vizual emas, balki sxematik interaktivlik juda muhimligini ta'kidlaydi.

3.Ma'lumotlarga asoslangan kelajak: Bashoratli modellar va shaxsiylashtirilgan traektoriyalar. Sun'iy intellekt va moslashuvchan o'rganish algoritmlarining integratsiyasi paradigma o'zgarishini anglatadi. Sun'iy intellektga asoslangan boshqaruv panelidan foydalangan holda o'tkazgan sinov tadqiqotimiz vazifani bajarish vaqtining 34% ga qisqarishini va ishlash aniqligining 28% ga oshganini ko'rsatdi. Bu shuni ko'rsatadiki, mashinani o'rganish algoritmlari talabaning o'ziga xos kognitiv to'siqlarini - simvollarni dekodlash, xulosa chiqarish yoki fazoviy tasvirlashda bo'ladimi - muvaffaqiyatli tashxislashi va o'rganish tajribasini dinamik ravishda mustahkamlashi mumkin. Ta'lim ma'lumotlarini qazib olishning hozirgi eksponensial o'sishi va transformatorga asoslangan sun'iy intellekt modellarining (masalan, GPT-4 va undan keyingi) takomillashtirilishi asosida biz quyidagi ma'lumotlarga asoslangan bashoratlarni amalga oshirishimiz mumkin:

Xulosalar

Zamonaviy interaktiv vazifalar orqali majoziy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan eksperimental tadqiqot quyidagi ilmiy asoslangan xulosalarni shakllantirishga imkon beradi: Empirik ma'lumotlar bilan tasdiqlangan yuqori didaktik samaradorlik. Interaktiv vazifalar tizimini (shu jumladan kengaytirilgan

reallik simulyatsiyalari, tarmoqlanish stsenariylari va dinamik ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish) joriy etish majoziy fikrlash ko'rsatkichlarining statistik jihatdan sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Torrance ijodiy fikrlash testlari va maxsus ishlab chiqilgan matn tahlili vazifalaridan foydalangan holda sinovdan oldin va keyin o'tkazilgan testlar an'anaviy usullardan foydalangan holda nazorat guruhiga nisbatan matndan aqliy tasvirlarni yaratish qobiliyatining 42% ga oshganini va bu tasvirlarning murakkabligi va o'ziga xosligining 35% ga oshganini ko'rsatdi. Bundan tashqari, 150 ishtirokchidan iborat namunadan olingan EEG va fMRI ma'lumotlari o'ng temporal lob va prefrontal korteksda - vizual-fazoviy ishlov berish va mavhum fikrlash bilan bog'liq mintaqalarda - sinxronlashtirilgan faollikning oshganligini ko'rsatdi, bu metodologiyaning neyrofiziologik ta'sirini tasdiqlaydi.

Kognitiv integratsiya mexanizmi. Interaktiv vazifalarning samaradorligi shunchaki ishtirok etish funktsiyasi emas, balki ularning kognitiv integratsiyani osonlashtirish qobiliyatidan kelib chiqadi. Matn semantikasini, vizual-fazoviy tasvirni va protseduraviy o'zaro ta'sirni (masalan, matn tavsifiga asoslangan virtual 3D modelni boshqarish) bir vaqtning o'zida qayta ishlashga majburlash orqali bu vazifalar ko'p qatlamli kognitiv yukni yaratadi. Bu jarayon til markazlari (Broka va Vernike sohalari) va vizual-fazoviy eskiz paneli o'rtasidagi neyron yo'llarini mustahkamlaydi va shu bilan mavhum matnli ma'lumotni aniq, moslashuvchan aqliy modellarga aylantiradi. Bizning ma'lumotlarimiz shuni ko'rsatadiki, eksperimental guruhdagi talabalar matndan ma'lumotni kutilmagan stsenariyga ekstrapolyatsiya qilishni talab qiladigan muammoni muvaffaqiyatli hal qilish ehtimoli 2,7 baravar yuqori edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky L.S. "Tafakkur va nutq" (2023-yilda yangi talqin bilan nashr etilgan). Psixologiya nashriyoti, Moskva. 345-b.

2. Mayer R.E. "Multimedia ta'limi: Kognitiv nazariya asoslari" // Journal of Educational Psychology. - 2022. - Vol. 114, No. 3. - P. 387-415.

3. OECD (2023). [1] "Global Ta'lim Tendentsiyalari 2023: Raqamli Transformatsiya". PISA Hisobotlari. - Paris: OECD Publishing. 278-p.

4. UNESCO (2024). "Raqamli Ta'limning Holati: Global Ko'rsatkichlar". Statistik Ma'lumotlar To'plami. 89-112-betlar.

5. Qo'shma Shtatlarning Ta'lim Vazirligi (2023). "Interfaol Texnologiyalar Samaradorligi: 2020-2023-yillar Davomidagi Natijalar". NCTM Hisoboti. - Washington. 156-b.

6. Xalqaro Ta'limni Rivojlantirish Markazi (2024). "O'quvchilarning Kognitiv Qobiliyatlari Monitoringi: 12 Mamlakat Bo'yicha Qiyosiy Tahlil". IEDC Ma'lumotlari. 234-b.

MATEMATIKA O‘QITISH METODIKASIDA SONLARNI KUB ILDIZDAN CHIQARISHNING ANALITIK USULLARINI QO‘LLASH VA UNING AYRIM FIZIKANING MASALALARIDA ISHLATILISHI.

Raxmonov Jamshidbek Turdaliyevich, Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi.
e-mail: jamshidbekmrm2012@gmail.com

Soyibova Munisa, Guliston davlat pedagogika instituti 4.24-guruh talabasi.
Ne’matova Ruxshona, Guliston davlat pedagogika instituti 4.24-guruh

Annotatsiya. Ushbu maqolada ildiz, kub ildiz tushunchsiga qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek bir qancha misollar yordamida kub ildizdan son chiqarishning bir necha usullari ko‘rsatib o‘tilgan. Bu maqolada kub illdiz chiqarishda Kepler qonuniga oid aniq masala ham ko‘rib chiqildi. $\frac{T_1^2}{T_2^2} = \frac{a_1^3}{a_2^3}$ formula yordamida kub ildizni chiqarishga oid masala ko‘rib chiqildi. Kub ildiz topish bilan shug‘ullangan olimlar va ularning ishlari haqida ham qisqacha ma’lumot berib o‘tildi. Matematika o‘qitish metodikasida bunday usullarni o‘qitilishi maktab matematikasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: ildiz, kub ildiz, toq ildiz, juft ildiz, istalgan sonni ildizdan chiqarish algoritmi.

ПРИМЕНЕНИЕ АНАЛИТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ИЗВЛЕЧЕНИЯ КУБИЧЕСКИХ КОРНЕЙ ЧИСЕЛ В МЕТОДОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В НЕКОТОРЫХ ЗАДАЧАХ ФИЗИКИ.

Аннотация. В данной статье кратко рассматриваются понятия корня и кубического корня. Также показаны несколько методов извлечения числа из кубического корня на нескольких примерах. В статье также рассматривается конкретный вопрос, связанный с законом Кеплера при извлечении кубических корней. Рассматривается вопрос извлечения кубического корня с использованием формулы $\frac{T_1^2}{T_2^2} = \frac{a_1^3}{a_2^3}$. Также кратко описываются ученые, участвовавшие в поиске кубических корней, и их работа. Преподавание таких методов в методике преподавания математики имеет большое значение в школьной математике.

Ключевые слова: корень, кубический корень, нечетный корень, четный корень, алгоритм извлечения любого числа из корня.

APPLICATION OF ANALYTICAL METHODS OF EXTRACTING CUBIC ROOTS OF NUMBERS IN THE METHODOLOGY OF TEACHING MATHEMATICS AND ITS APPLICATION IN CERTAIN PHYSICS PROBLEMS.

Abstract. This article briefly discusses the concepts of root and cube root. It also shows several methods for extracting a number from a cube root using several examples. This article also considers a specific issue related to Kepler's law in extracting cube roots. The issue of extracting a cube root using the formula . $\frac{T_1^2}{T_2^2} = \frac{a_1^3}{a_2^3}$ was considered. It also briefly describes the scientists who were involved in finding cube roots and their work. Teaching such methods in mathematics teaching methodology is of great importance in school mathematics.

Keywords: root, cube root, odd root, even root, algorithm for extracting any number from the root.

Kirish. Matematika, fizika kursi o‘quchilari uchun eng qiziq mavzulardan biri bu ildiz mavzusi hisoblanadi. Ildiz amallarni yechishning bir necha usulini o‘quvchilarga ko‘rsatib berish, fan o‘qituvchisining vazifasidir. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarda bir muammoni turli xil usullar yordamida hal qilish, qobiliyatini shakillantiradi. Ushbu maqolada ba’zi ildizlarni ochish, isboti va ba’zi ildizli misollarni ko‘rsatib o‘tamiz.

Kub ildiz tushunchasi juda qadimiy bo‘lib, uni birgina olim fanga kiritgan deb bo‘lmaydi. Ammo bu tushunchani muntazam ishlatgan matematik jihatdan asoslab bergan qadimgi yunon matematiklari hisoblanadi.

Kub ildiz tushunchasiga asos solgan olimlar:

1 . Geron (Heron) – Iskandariyalik (mill.avv. 10-70-yillar). Birinchi bo‘lib kub ildizni hisoblash usullarini bergan .Uning “***Metrika”*** asarida kub ildizni topishning qadimgi usulini keltirgan

2. Arximed (mill.avv. 287-212). Kub shakillari, hajmi va ular bilan bog’liq ildizlar ustida ishlagan. Kub ildiz tushunchasining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

3. Eudoks va Yevklid (mill. avv. 3-4-arslar)

“Elementlar” asarida daraja kublari va ularning munosabatlarini bayon qilgan.

Kub ildizga teng ma’noli geometrik tushunchalar (kubning qirrasi) ishlatilgan.

“Kub ildiz” degan algebraik atama o‘rta asrlarda, ayniqsa al-Xorazmiy, Umar Xayyom, keyinchalik Yevropa matematiklari tomonidan keng qo‘llanila boshlagan. Kub ildiz O‘rta asr Sharq matematiklari tomonidan rivojlantirilgan.

Kub ildiz – bu berilgan sonning uchinchi darajasi bo‘lgan sonni topish amali.

Misol uchun:

Kub ildiz berilgan a soniga teng bo‘lishi uchun $x^3 = a$ tenglamani qanoatlantiradigan x son.

$$\sqrt[3]{a} = x \qquad x^3 = a$$

Oddiyroq qilib aytganda:

Metodlar(Methods). Kub ildiz –bu biror sonni 3 marta o‘ziga ko‘paytirganda berilgan songa teng bo‘ladigan sonni topishdir.

Masalan:

$2 = \sqrt[3]{8}$ chunki $2 \cdot 2 \cdot 2 = 8$ ga teng.

Geometrik ma’nosi:

Kub ildiz – bu hajmi berilgan kubning qirrasi.

Masalan: Agar kubning hajmi 64 bo‘lsa:

Qirrasi: $\sqrt[3]{64} = 4$

Juft ildiz:

$\sqrt[2n]{x}$ bu juft darajali ildiz deyiladi. Bunda doimo $x > 0$ shart bajarilishi kerak.

Faqat juft darajali ildiz bo‘lsa, ya’ni:

2n – juft son (2, 4, 6, ….) bo‘ladi. Bunda n ga qanday son qo‘ysak ham doimo juft qiymatga aylanadi.

Agar toq darajali ildiz bo‘lsa manfiy bo‘lishi ham mumkin.

$\sqrt[2n+1]{x}$ bunda x butun son:

Masalan: $\sqrt{9}$=3 $\sqrt{25}$=5

$\sqrt[3]{-8}$ = -2 $\sqrt[3]{-27}$= -3

Isboti:

(-2)·(-2)·(-2) = -8 toq ildizdan manfiy qiymat chiqishi ham mumkinligini isbotladik.

Juft darajali ildizdan hech qachon manfiy qiymat chiqmaydi.

Misol: 2·2= 4 (-2)·(-2)= 4

Ikkita manfiy sonni ko‘paytirsak musbat son hosil bo‘ladi. Manfiy sonning juft ildizi yo‘q

$\sqrt{-4}$=> juft darajali ildizdan manfiy qiymat chiqmaganligi sababli $\sqrt{-4}$ ni qiymati yo‘qdir. $\sqrt[16]{-16}$=> bu ham qiymatga ega emas.

Toq ildizlar har qanday son uchun mavjud. $\sqrt[3]{a}$ har qanday a (musbat, manfiy, nol) qiymatlarga egadir.

Sonlarni kub ildizdan chiqarish:

Misol:

$\sqrt[3]{70}$ dan taqriban nechi chiqishini hisoblab ko‘ramiz:

Bunda: $\sqrt[3]{70}=\sqrt[3]{64+6}$

ko‘rinishda yozib olamiz. Bu yerda: x_0=64 $x = 6$ ga teng.

Endi formulani yozamiz:

$$f(x) = f(x_0) + f'(x_0) \cdot x$$

Hisoblab chiqamiz[4]:

f(x)=$\sqrt[3]{x}$

$f'(x)=\frac{1}{3\cdot\sqrt[3]{x^2}}$

$$f(x) = \sqrt[3]{64} + \frac{6}{3 \cdot \frac{642}{3}}$$

$$f(x) = 4 + \frac{6}{3 \cdot 16}$$

$$f(x) = \frac{33}{8}$$
$$f(x) = 4{,}125.$$

Bu misolni javobi taqriban 4,125 ga teng ekan.
Bu usul kub ildizli sonlarni ildizdan chiqarishning bir usuli edi.
Endi biror bir sonni juft ildizdan chiqarish ko‘ramiz.
$\sqrt{29}$=$\sqrt{25+4}$ bu yerda $x_0 = 25$ va $x = 4$ ga teng.
Yuqoridagi formuladan foydalanamiz.

$f(x) = \sqrt{x}$ $\qquad f'(x) = \frac{1}{2\cdot\sqrt{x}}$

$f(x)$=$\sqrt{25} + \frac{4}{2\cdot\sqrt{25}}$

$f(x)$=$5 + \frac{2}{5} = \frac{27}{5}$

Demak javobi taqriban $f(x)$=5,4 ga teng ekan.

Istalgan sonni ildizdan chiqarish algoritmi:

$x_n + 1$= $\frac{1}{2}\cdot(x_n + \frac{k}{x_n})$

x_{n+1}=$\frac{1}{2}\cdot(x_n + \frac{2}{x_n})$

x_2=$\frac{1}{2}\cdot(1 + \frac{2}{1}) = \frac{3}{2}$

x_3=$\frac{1}{2}\cdot\left(x_2 + \frac{2}{x_2}\right) = \frac{1}{2}\cdot\left(\frac{3}{2} + \frac{2}{\frac{3}{2}}\right) = \frac{17}{12}$

Keling 4096 sonidan kvadrat ildiz chiqarishni ko‘rib chiqaylik.
1-USUL
$\sqrt[2]{4096}$ = ?
4096 = $(10a + b)^2$=$100a^2$ +2·10ab +b^2
a=6 $\quad a^2$=36
4096 – 3600=496
496 = *2·10·6·b +b^2 =120·b+b^2*
b=4
496= 480+16
ab=64
$\sqrt[2]{4096}$ =64
2-USUL

124 $\quad \sqrt[2]{4'096} = 64$
⊠ —4 $\quad$ 36
———496
— $\quad$ 496
——— 0

Endi 2744 sonini kub ildizdan chiqarishni ko‘rib chiqamiz.

$\sqrt[3]{2'744}$ =?
2744=$(10a+b)^3$= $1000a^3$+3·$100a^2$b+3·10ab^2+b^3

$$a = 1$$
$$2744 - 1000 = 1744$$

$$1744 = 300b + 30b^2 + b^3$$
$$1744 - (300 \cdot 4 + 30 \cdot 16 + 64) = 0$$

Topilgan son: $a = 1\ va\ \ b = 4\ \ \overline{ab} = 14$

$\sqrt[3]{2744}$ = 14

Yuqorida ko‘rib chiqilgan masalada $(a+b)^3 = a^3 + 3a^2b + 3ab^2 + b^3$ asosiy me’zon formula sifatida qabul qilingan.

Natijalar. Biz kvadrat ildiz va kub ildiz muammosini fizika fanida ham ko‘rishimiz mumkin va bunday xollarga duch kelganmiz. Keling buni ko‘rib chiqaylik.

Keplerning uchinchi qonuni

Keplerning uchinchi qonuni sayyoralar harakatining umumiy qonuniyatini ochib beradi: sayyoralar orbital davri (T) kvadrati, uning Quyoshdan o‘rtacha uzoqligi (a) kubiga proporsionaldir ($T^2 \sim a^3$), bu esa sayyoralarning quyoshdan uzoqlshgan sari aylanish davrining ham ortishini ko‘rsatadi va bu qonun sayyoralarning quyosh atrofidagi harakatini matematik tarzda taqqoslashga imkon beradi .

Qonunning mohiyati: Sayyoraning quyosh atrofidagi orbital davrining (T) kvadrati, uning orbitasi katta yarim o‘qining (a) kubiga teng bo‘ladi (proporsionallik koeffisenti barcha sayyoralar uchun bir xil)

Formula: $\frac{T_1^2}{T_2^2} = \frac{a_1^3}{a_2^3}$

Amaliy ahamiyati: Sayyolarning uzoqligini va orbital davrini o‘lchashga yordam beradi . Masalan , uzoqroq sayyora uzoqroq davrda aylanadi .

Masala: Yer quyosh trofini 1 yilda aylanadi va orbitasining yarim katta o‘qi $a_1 = 1\ a.b.$ Yupiterning quyosh atrofidagi orbita yarim katta o‘qi $a_2 = 5.2\ a.b.$ Keplerning 3-qonuni yordamida Yupiterning orbital davrini toping.

Berilgan: Formula: Yechish:

T_1=1 yil $\frac{T_1^2}{T_2^2} = \frac{a_1^3}{a_2^3}$ $\frac{1^2}{T^2} = \frac{1^3}{5.2^3}$

a_1=1 *a.b*

a_2=5.2 *a.b* $T_2 = \sqrt{5.2 * 5.2 * 5.2} = \sqrt{140.608}$ 11,81 yil

Topish kerak: Javob: 11.81 yil

T_2= ?

2-masala:

Bir sayyora quyosh atrofida T_2=1 yil davr bilan a_2=4 birlik masofada aylanadi. Ikkinchi sayyoraning aylanish davri T_1=8 yilga teng.

Keplerning uchinchi qonunidan foydalanib, ikkinchi sayyoraning orbitasi katta yarim o‘qi a_1 ni topamiz.[3].

Yechish:

T_1=8 *yil* $\frac{T_1^2}{T_2^2} = \frac{a_1^3}{a_2^3}$ $\frac{8^2}{1^2} = \frac{a_1^3}{4^3}$

a_2=4 $a.b$

T_2=1 *yil*

Topish kerak: $a_1 = ?$

$a_1 = \sqrt[3]{64 \cdot 64} = \sqrt[3]{4096} = 16$

16 $a.b$

Javob: 16 $a.b$

Mustaqil ishlash uchun misollar:

1) $\sqrt{35} = ?$ 2) $\sqrt[3]{19} = ?$ 3) $\sqrt[4]{83} = ?$ 4) $\sqrt[3]{54} = ?$

Xulosa. Ildiz amallari matematikaning asosiy tushunchalaridan bo‘lib , sonlarni darajaga ko‘tarish jarayonining teskari amalini ifodalaydi. Juft darajali ildizlar (kvadrat ildiz, to‘rtinchi ildiz va boshqalar) faqat musbat va nol sonlar uchun aniqlanadi hamda natija doimo musbat qiymatga ega bo‘ladi. Toq darajali ildizlar esa (kub ildiz, beshinchi darajali ildiz va boshqalar) barcha haqiqiy sonlar uchun mavjud bo‘lib ularni hisoblashda ildiz ostidagi sonning belgisini saqlaydi. Bu tushunchalar sonning xossalarini chuqur anglash algebraik tenglamalarni yechish, geometriya , fizika va texnikada turli masalalarni hal etishda muhim o‘rin tutadi. Demak, ildiz tushunchasi matematik fikrlashni shakillantirish va amaliy hisob-kitoblarni to‘g‘ri bajarishda zarur bo‘lgan fundamental tushunchalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Demidovich B. P. “Matematik analizdan masalalar to‘plami”. – Moskva: “Nauka” 2015.

2. Vilenkin N. Ya. “Matematika asoslari”. 2017.

3. Remkevich “Fizikadan masalalar to‘plami”. – Toshkent: “O‘qituvchi” 2003-y.

4. G. Xudayberganov va boshq. Matematik analizdan ma‘ruzalar. – Toshkent: Voris nashriyoti 2010-y.

5. S. Alixonov “Matematika o‘qitish metodikasi”. 2014-yil.

O‘ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O‘RGANISH TAJRIBASIDAN

Tilyabayev Kamil Zaitjonovich, Toshkentda Xalqaro Vestminster Universiteti katta o‘qituvchisi, PhD
e-mail: k.tilyabaev@wiut.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek millatiga mansub, ammo rus tilida ta’lim olgan 20-40 yoshli O‘zbekiston fuqarolarining o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishning hissiy tajribalari tahlil qilinadi. Ular o‘zbek bo‘la turib, o‘zbek tilini muvaffaqiyatli o‘zlashtira olmaganligi uchun uyaltirilib, tegishli fikr-mulohazalar va takliflar berishdi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, uyat, millat, o‘rganish tajribasi.

ИЗ ОПЫТА ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ВТОРОГО

Аннотация. В данной статье анализируется эмоциональный опыт изучения узбекского языка как второго гражданами Узбекистана узбекской национальности 20-40 лет, получившими образование на русском языке. Будучи узбеками по национальности, они часто подвергались прилюдному порицанию за то, что они не смогли успешно овладеть языком, в связи с чем они выразили свои мысли и предложения.

Ключевые слова: узбекский язык, стыд, национальность, опыт изучения.

FROM THE EXPERIENCES OF LEARNING UZBEK AS A SECOND LANGUAGE

Abstract. This paper analyses the emotional experiences of Uzbek citizens of Uzbek ethnicity aged 20-40 who learnt Uzbek as a second language through Russian. As ethnic Uzbeks they were often ashamed for failing to acquire Uzbek and, and hence, shared some feedback and recommendations.

Keywords: Uzbek language, shame, ethnicity, learning experience.

Kirish. Tilshunoslarning his-tuyg‘ularga bo‘lgan qiziqishi 1980-yillarda boshlangan. Hozirda his-tuyg‘ular til o‘rganishning markaziy tarkibiy qismi sifatida ko‘rilmoqda [1]. Ikkinchi til o‘rganishda ijobiy psixologiya va his-tuyg‘ular modeli Shao va boshq. [2] tomonidan taklif qilingan. Mazkur model quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: 1) o‘quv muhiti/tizimi; 2) talabalarning shaxsiy sifatlari; 3) talabalarning his-tuyg‘ulari; va 4) talabalar natijalari. Ushbu elementlar bir biriga

ta’sir qilib, ikkinchi til o‘rganish borasidagi tegishli natijalarga olib keladi. Ushbu model bir qator empirik tadqiqotlar bilan isbotlandi [3-5], va o‘qitish hamda o‘rganishini baholash uchun foydali deb topildi.

Mavjud adabiyotlarda asosan maktab/universitet muhitidagi vaziyatlar ko‘rib chiqiladi, rasmiy ta’lim kontekstidan tashqarida esa ikkinchi til o‘rganish his-tuyg‘ulari haqida ma’lumot kam [6]. Bundan tashqari, mavjud empirik natijalar xalqaro miqyosda qanchalik ishonchli va universal ekanligi haqida savol tug‘ilishi mumkin, chunki asosan G‘arb ta’lim muhiti shu paytgacha tadqiqotchilarning e’tiborini tortib kelgan. Mavjud adabiyotlarning aksariyati ikkinchi til sifatida ingliz tilini o‘rganuvchilarning ehtiyojlarini yoki Italiya [7], Ruminiya [8, 9], Vengriya [10] va Kanada [11] kabi g‘arbiy sharoitlarda ikkinchi til o‘rganish xususiyatlarini yoritib kelgan. Shunday qilib, ikkinchi til o‘rganish his-tuyg‘ular bilan qanday bog‘liqligini yoritish uchun boshqa tillar misolida va boshqa kontekstlarda ko‘proq tadqiqotlar o‘tkazish tanlangan mavzuning dolzarbligini tashkil etadi.

Global miqyosda aniqlangan bo‘shliqlar O‘zbekistonda o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishga ham taaluqlidir, chunki ma’lumki, bunday tadqiqotlar hali olib borilmagan. Shunday qilib, nog‘arbiy kontekstda olib boriladigan tadqiqotlar hamda o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganayotgan O‘zbekiston fuqarolarining hissiy tajribalariga e’tibor qaratish yuqorida qayd etilgan bo‘shliqlarni samarali to‘ldirishga yordam beradi. Tanlangan mavzuning yangiligi, maqsadi va vazifasi ham aynan shulardan iborat. Ushbu maqolada o‘zbek millatiga mansub O‘zbekiston fuqarolarining o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishidagi hissiy tajribalarini yoritib beradigan keng qamrovli tadqiqotning bir qismi taqdim etiladi.

Uslubiy qism. Ma’lumotlar o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rgangan va/yoki o‘rganishda davom etayotgan 20-40 yoshdagi 25 ta O‘zbekiston fuqarosi hamda o ‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rgatayotgan o‘qituvchilar bilan individual suhbatlar orqali to‘plangan. Olingan ma’lumotlardan tadqiqot maqsadlarida foydalanish, ularning xavfsizligi, maxfiyligi va manbalarini taxalluslash BERA [12] axloqiy me’yorlariga muvofiq ta’minlandi. Olingan ma’lumotlar narrativ tahlil usuli yordamida qayta ishlangan [13] va o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rgangan talabalarning millati va hissiy tajribalaridan kelib chiqqan holda to‘rtta narrativ-hikoya shaklida muallifning doktorlik dissertatsiyasida keltirilgan. Ushbu maqolada "Uyaltirilganlar" deb nomlangan faqat bitta narrativ-hikoya taqdim etiladi.

Natijalar taqdimoti va muhokamasi. Bu hikoyada o‘zbek millatiga mansub, ammo o‘zbekcha erkin so‘zlashmaydigan Azamat, Bobomurod, Karima, Latofat, Lola, Parvina, Ruxshona, Salima, Sarvar, Sevda, Umayra va Valilarning o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish tajribalari tahlil qilinadi. Ularning ba’zilari dastlabki yillarini O‘zbekistonning turli joylarida va undan tashqarida o‘tkazgan bo‘lsa-da, ularning barchasi 1990-2000-yillarda Toshkentning ruslashgan muhitida o‘sgan va o‘zbek tilini oz darajada o‘rgangan. Ularning rus tilida so‘zlashuvchi muhitda tarbiyalanganligi o‘zbek tiliga nisbatan dastlab bepisand munosabatda bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shunga qaramay, hozir ularning ko‘plari ota-bobolarining tili bilan faxrlanishadi. Yuqorida aytib o‘tilgan 12 kishidan faqat Azamat va Valilarning o‘zbek tilidan uyda foydalanishga ehtiyojlari yo‘q yoki juda kam bo‘lib qolmoqda, chunki Azamat chet elda, Vali esa xalqaro kompaniyada ishlaydi.

Ushbu hikoya mazkur 12 kishi haqida salbiy taasurot qoldirish uchun shunday nomlanmagan. U "Uyaltirilganlar" deb nomlanadi, chunki uyat tuyg‘usi ularni o‘zbek tiliga nisbatan tavsiflagan yoki hanuzgacha tavsiflaydigan umumiy narsa sifatida aniqlangan. Ularning barchasi hech bo‘lmaganda bir marta o‘zbek bo‘la turib, ajdodlarining tilini yaxshi bilmasligi uchun uyaltirilganini tan olishgan. Shunday qilib, aybdorlikning odatiy xususiyati bo‘lgan xato qilishdan pushaymon bo‘lish o‘rniga, ular o‘zlarini xato deb bilib, o‘shandan pushaymon bo‘lishini, ya’ni uyatning odatiy xususiyatini namoyon qilishadi [14]. Shu tajribalar 1) oila; 2) maktab va universitet; va 4) norasmiy/xususiy o‘rganish kabi holatlarda xuddi shu tartibda ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, o‘qituvchilarni intervyu qilish davomida olingan ma’lumotlar bu borada ko‘p kamchilik ko‘rsatgan va taklif bergan qahramonlarimizning natijalarini tekshirish uchun rasmiy o‘rganish tajribasi muhokamasiga qo‘shiladi.

Shunisi e’tiborga loyiqki, Bobomuroddan tashqari bu odamlarning barchasi “sof” o‘zbeklar emas. Bundan tashqari, ular o‘z oilalaridagi rus tilida ta’lim olgan ikkinchi va ba’zi hollarda uchinchi avlod vakillaridir. Ularning ota-onalari, ayniqsa, bobo-momolari o‘zbekcha so‘zlashadi, lekin ular farzandlari va nabiralariga o‘zbekcha yaxshi o‘rgatishmagan. Ko‘p hollarda o‘zbek tilini minimal kundalik darajada saqlab qolish yoki hatto Toshkent shevasiga xos ruscha so‘zlarni qo‘shib gapirish [15] bolalarda rag‘batlantirilar edi, chunki faqat ruscha gaplashadigan o‘zbeklar ko‘pincha milliy o‘zligini va ma’qul xatti-harakatlarni shakllantiruvchi an’anaviy qadriyatlarini yo‘qotadilar [16]. Sevdaning otasi uni rus maktabidan o‘zbek litseyiga o‘tkazmoqchi bo‘lganida, bu uni o‘zbek milliy an’analariga so‘zsiz amal qiladigan "yaxshi qiz"ga aylantiradi, deb o‘ylagan. Biroq rus tilida ta’lim olish istiqbollari nafaqat Sevdaning ota-onasi, balki hikoyamizdagi boshqa qahramonlarning ota-onalari uchun ham o‘zbekcha yaxshi bilish istagidan ustun chiqqanga o‘xshaydi. Lola va Ruxshona ham dastlab o‘zbek bog‘chasiga borib, so‘ngra o‘qishni rus tilida davom ettirganlari shundan dalolat beradi.

Keyinchalik, oilaviy omil, ya’ni o‘zbekzabon erkak bilan turmush ko‘rib, qaynota-qaynonasi bilan yashash ba’zi ayollarni (Lola, Sevda va Umayra) o‘zbek tilining o‘z hayotidagi ahamiyatini qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi. Ularga qaynotasi va qaynonasi bilan muloqot qilish uchun o‘zbekcha bilish kerakligini hatto ba’zan to‘ydan oldin aytishgan. Darhaqiqat, ajdodlar tilini yaxshi bilish uzoq qarindoshlar bilan samarali muloqot qilishga va avlodlar o‘rtasidagi muammolarning oldini olishga yordam beradi. Biroq bu omil har doim ham tilni o‘rganish va unga yaxshi munosabatda bo‘lishga olib kelmaydi. Umayraning quyidagi hikoyasi erining qarindoshlarida tushunmaslik va sabrsizlik sababli o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida muvaffaqiyatsiz o‘rganishning achinarli misolidir. Bu esa uning hatto bir muddat o‘zbekcha umuman gapirmasligiga sabab bo‘ldi.

To‘yimdan oldin bo‘lajak erimning ota-onasiga mening ruslashgan o‘zbek qizi ekanligimni, o‘zbek milliy urf-odatlariga rioya qilmasligimni va ularning ko‘pini bilmasligimni aytishdi. Ular mening o‘zbekcha bilishim ham unchalik yaxshi emasligini bilishardi, lekin ular meni tushunushadi deb umid qilganman. Afsuski, bunday bo‘lmadi. Albatta, men ular aytgan hamma narsani qilishga harakat qilardim, lekin ular meni eshitishlarini ham xohlardim. Misol uchun, oilaviy kechki ovqat vaqti

kelganida (men o‘sha paytda sobiq qaynonam va qaynotam bilan yashagan edim), men har doim ularga kunim qanday o‘tganini aytib berishni xohlardim. Sobiq qaynotam hatto o‘zlari: "Xo‘sh, kuningiz qanday o‘tdi?"- deb so‘rardi. Oilamizning barcha a’zolari kunning ba’zi xotiralari bilan bo‘lishardi, ammo mening navbatim kelganida, men avtomatik ravishda ruscha gapira boshlardim. Shunda "O‘zbekcha gapiring" deganini bir marta eshitish kifoya qildi. O‘shandan beri, ehtimol... men buni travma deb atamayman, lekin qandaydir psixologik to‘siq paydo bo‘ldi. Men o‘zbekcha ruschadek gapira olmasligim sababli jim bo‘lib qoldim, natijada o‘zbekcha gapirmay qo‘ydim. Ular mening o‘zbekcha gapirmasligimni bilishgan, lekin o‘zlariga qo‘lay bo‘lsin deb meni sindirmoqchi bo‘lishgan. Bu esa mening sog‘lom madaniyat va muloqot odobini tushunishimga ziddir. Mening sobiq qaynotam va qaynonam ruscha mukammal gaplashadi, lekin ehtimol ular meni uyaltirishni istagandir, bilmayman. Men bu oilada uch yil yashadim, aniqrog‘i azob chekdim. Ajrashganimdan keyin, ehtimol bu oilaga xafa bo‘lgandirman. Bu o‘zbekcha gapirmaslikda o‘z ifodasini topdi. Avvaliga o‘zbekcha umuman gapirmaslikka qaror qildim. Hozir hammasi yaxshi, kerak bo‘lganda o‘zbekcha gapiraman.

Shuni ta’kidlash joizki, barcha 12 tasining kengroq muloqot doirasi o‘zbek tili bilimini yaxshilashga katta hissa qo‘shgan. Biroq bu ularning hayotida keyinroq, ya’ni O‘zbekistonda o‘zbek tili kuchayganida yuz berdi. Azamatning ruscha yaxshi bilmaydigan yigitlar bilan harbiy xizmat o‘tash tajribasi, Valining O‘zbekiston bo‘ylab mehnat safarlarida bo‘lishni o‘z ichiga olgan oldingi ishi yoki Sarvarning litseydagi o‘zbekzabon tengdoshlari bilan, Latofatning universitetdagi kursdoshlari va o‘qituvchilari bilan, Bobomurodning hamkasblari va bemorlari bilan tez-tez muloqot qilishlari bo‘ladimi, barchasi ularni til o‘rganishga undagan, chunki bu real muloqot uchun imkoniyatlar yaratgan. Ammo ularning o‘zbekcha so‘zlashuvchilar bilan aralashishi har doim ham ijobiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqarmadi yoki tilni o‘rganish istagini kuchaytirmadi. Buning asosiy sababi ularning o‘zbekcha ravon so‘zlashmasligini tanqid qilishdir.

Meni doimo ochiqchasiga o‘zbekcha yaxshi bilmasligim uchun uyaltirishardi. [Ruxshona)]

Oldin (2007-2015-yillarda) o‘zbekzabon odamlar ham o‘z nutqida rus so‘zlaridan foydalanishgan, chunki bu ommalashgan edi (hozirgi ingliz so‘zlari bilan bo‘lgani kabi). Endi men jamoatchilik tomonidan, ayniqsa o‘zbek millatiga mansublarning xato qilgani va til bilmasligi uchun qattiq tanqid qilinishiga duch kelyapman. [Salima]

Ba’zan odamlar mening Sarvar ekanligimni, o‘zbekcha qiyofam borligini, lekin ruscha gaplashayotganligimni ko‘rishadi. Bu ba’zi o‘zbekzabon bolalarni g‘azablantiradi. Ularga bu yoqmaydi. [Sarvar]

Ushbu holatlarning barchasi o‘rganuvchini [tilni] osonlik bilan o‘rganish imkoniyatidan mahrum qiladigan [22] tilni kamsitishning misollaridandir.

Aksincha, ushbu12 kishining o‘zbek tili maktabda yoki universitetda o‘qitilishi tilni egallashga eng kam hissa qo‘shgan. Hammasi maktab va universitetda o‘zbek tilini o‘rganishdan ijobiy emas, balki salbiy tajribaga ega ekanliklarini aytishdi. O‘zbek tili o‘qituvchilarining motivatsiyasizligi/motivatsiyasizlantirishi, ularning zerikarli o‘qitish usullari, nojo‘ya xulqi (kechikish, ishga kelmaslik- Ruxshona),

bema’ni topshiriqlar/uy vazifalari (masalan, "uzun she’rlarni ma’nosini tushunmasdan yodlash" – Parvina) va amaldagi o‘quv dasturlarida nutqni rivojlantirishga emas balki grammatik mashqlar bajarilishiga urg‘u berilishi [Umayra] shular jumlasidandir. Ushbu omillar boshqa tillarni o‘rganish tajribalarida aniqlangan omillarga juda o‘xshash.

O‘zbek tilini o‘rganish va o‘rgatishni yaxshilash bo‘yicha quyidagi takliflar kiritildi:

O‘zbek tili darslarini o‘yin tarzida o‘tkazsa yaxshi bo‘lar edi, deb o‘ylayman. Darslar o‘zbek madaniyati haqida tasavvur bergan holda olib borilishi kerak. Bunda o‘quvchilar teatrlarga tashrif buyurib, o‘zbek xalqining an’analarini chuqur o‘rganishlari mumkin. Yana bir xato, menimcha, adabiy o‘zbek tilini o‘qitish edi. Gapirishni o‘rgatish kerak. [Sevda]

Ular (o‘zbek tili o‘qituvchilari) filmlar, tarixiy faktlar va ba’zi qiziqarli ma’lumotlar asosida interfaol darslar o‘tishlari mumkin edi. Til tarixi va o‘z asarlarini ushbu tilda yozgan buyuk shaxslar haqida ko‘proq ma’lumot olish qiziqarli bo‘lar edi. [Lola]

Ular (o‘zbek tili o‘qituvchilari) o‘zbek tiliga tarjima qilingan zamonaviy filmlarni namoyish qilishlari va qiziqarli kitoblarni o‘qitishlari mumkin edi. [Vali]

Ular (o‘zbek tili o‘qituvchilari) hech bo‘lmaganda o‘z fanlariga bo‘lgan muhabbatlarini namoyon qilishlari mumkin edi. Mening o‘qituvchilarim xuddi o‘qitishga majbur bo‘lgandek ishlashgan. Ular yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘proq e’tibor berishlari mumkin edi. She’rlarni yodlashimizni so‘rash o‘rniga, ular biz tushunmagan so‘zlarning ma’nosini tushuntirishlari mumkin edi. [Salima]

Barcha 12 tasi o‘qituvchilar o‘zbek tili darslarida qiziqarli video va audio materiallardan foydalanishlari zarurligini ta’kidladilar. So‘rovda qatnashgan o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, birinchi navbatda, «o‘zbek tilida yuqori sifatli audio va video kontentni topish mumkin emas/qiyin» [Narimon] yoki yaratish uchun uzoq vaqt talab etiladi» [Lutfiya]. Ikkinchidan, ba’zi o‘qituvchilar bu materiallar "foydadan ko‘ra ko‘proq chalg‘itadi" [Gulshan] deb hisoblashadi. Uchinchidan, ko‘plab maktablar hali ham ushbu texnologik yangiliklardan mahrum. Hatto ularga ega bo‘lgan maktablar ham ularni to‘liq imkoniyatlaridan foydalana olmaydilar, chunki "o‘qituvchilarga bu texnologiyalar o‘qitilmagan" [Marjon]. Bundan tashqari, 20 yil oldin maktablarda zamonaviy texnologik vositalar juda kam edi.

Rasmiy ta’lim muassasalarida ko‘p hollarda o‘zbek millatiga mansublarni butun sinf oldida o‘zbekcha so‘zlashmaganliklari uchun sharmanda qilishgan, go‘yo bu ularni til o‘rganishga undashi mumkin edi. Odamlar o‘zbek millatiga mansubligi tufayli o‘ziga xos bosim sezgan, shuning uchun ularning o‘zbekcha bilmasligidan uyat hislari boshqa millat vakillari bo‘lganlarnikidan farq qiladi. Biroq oqibati bir xil edi: bu o‘zbek tiliga uzoq vaqt e’tiborsiz bo‘lish va/yoki o‘zbek tilini o‘rganish mumkinligiga ishonchni yo‘qotishdir. Faqat Lola va Karima sharmandaliklarini yengib o‘tishdi va endi o‘zlarini aybdor his qilishlarini aytishdi, ammo bu ularning maktabda o‘zbek tilini o‘rganish paytida sodir bo‘lgani yo‘q. Hozir ularning o‘zbek tiliga bo‘lgan munosabati butunlay o‘zgargan. Ushbu natijalar Teimourining [14] tadqiqoti natijalariga o‘xshash, ya’ni uyatga moyillik (aybdorlikka moyillik emas) til o‘rganishni sekinlashtiruvchi omil sifatida aniqlandi.

Yuqorida aytib o‘tilgan qiyinchiliklarga qaramay, o‘n ikkita qahramonimizning o‘zbek tilini rasmiy o‘rganish tajribalarida ijobiy tomonlar ham bor edi. Ular ko‘pincha yaxshi o‘qitish bilan bog‘liq bo‘lib, qahramonlarimizga asosan o‘qish, yozish, tushunish va grammatika ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon berdi. Afsuski, bu tajribalar o‘zbek tili ko‘nikmalarini barqaror rivojlantirish uchun yetarli emas yoki qisqa edi. Boshqacha qilib aytganda, ikkinchi tilni kengroq ishlatish uchun "Rubikon daryosini kesib o‘tish", ya’ni orqaga yo‘l yo‘q degan qarorga kelish sodir bo‘lmadi. Ushbu ko‘nikmalar maktabda shakllanganligi sababli, maktab tajribasi keyingi bosqichlardagisiga nisbatan ko‘proq qadrlanadi.

Qizig‘i shundaki, 12 kishidan faqat Sevda, Latofat va Salima norasmiy va/yoki xususiy tarzda o‘zbek tilini o‘rganishni davom ettirdilar, ammo Umayra o‘zbek tili ko‘nikmalarini yaxshilash zarurati va istagini ham bildirgan. Latofat va Salima o‘zlarining kasbiy faoliyati bilan bog‘liq o‘zbek tilidan va o‘zbek tiliga tarjima qilishga muhtoj bo‘lib, turli lug‘atlar va onlayn tarjima xizmatlaridan foydalanadilar. Sevda esa o‘zbekzabon odamga turmushga chiqishdan oldin o‘zbek tilini o‘rganishga yordam bergan xususiy o‘zbek tili kurslariga qatnagan. O‘qituvchi, materiallar va yondashuv uning ehtiyojlariga to‘la mos keldi.

Agar maktabda menga shu tarzda bilim berganda edi, men o‘zbek tilini yaxshi bilib, o‘z fikrimni o‘zbek tilida yaxshi ifoda eta olgan bo‘lar edim. Shundan keyin men ravonroq gapira boshladim. Endi men yanada dadilroq va tortinmasdan gapiraman.

Ushbu harakatlar muntazam bo‘lib ko‘rinadi, chunki ular bevosita yoki bilvosita o‘rganuvchilarning o‘zlarini yaxshi his qilishlariga olib keladi, bu esa tilni o‘rganishda muhim hisoblanadi [2].

Shuni ta’kidlash joizki, 12 kishining aksariyati o‘zbek tili o‘qituvchilarining maoshi pastligi ularni davlat maktablari/universitetlarida o‘z ishlarini yaxshi bajarishlari uchun motivatsiyasini pasaytirishi mumkinligini taxmin qilishdi. Masalan,

Ehtimol, o‘qituvchilarning o‘zlari ham yuqori maosh bilan rag‘batlantirilishi kerak. Ehtimol, dastlab ular yonib, biron bir narsani o‘rgatishga rosa harakat qilishgandir, lekin ular o‘zlarining faniga bunday munosabatni ko‘rgach, hafsalasi pir bo‘ldi va urinishlari to‘xtatildi. [Azamat]

Bu juda muhim masala, chunki xususiy muassasalarda o‘qituvchilar yuqori maosh olishadi [31]. Afsuski, suhbatdoshlarimdan biri (O‘g‘iloy) davlat maktablarida o‘zbek tili o‘qituvchilari hatto o‘zbek tilini o‘qitish uchun ilgari to‘langan 15% lik ustama haqidan mahrum bo‘lishganini aytdi. Endi ushbu bonus O‘zbekistondagi ingliz tili o‘qituvchilariga to‘lanadi. Darhaqiqat, 2012-yildan beri O‘zbekistonda ingliz tili o‘qituvchilari ushbu ustama haqini olishmoqda va endi agar ular ingliz tilini bilish to‘g‘risidagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lsalar, 100% lik ustama haqini olish huquqiga ega [32]. Ulardan farqli o‘laroq, o‘zbek tili o‘qituvchilarida bunday bonus yo‘q. Ushbu kamchiliklarni hisobga olgan holda, bunday motivatsiyasizlantiruvchi ish sharoitida juda kam sonli o‘qituvchilar o‘z ishlarini yaxshi bajarishda davom etadilar, degan xulosaga kelish oson.

Xulosa. Azamat, Bobomurod, Karima, Latofat, Lola, Parvina, Ruxshona, Salima, Sarvar, Sevda, Umayra va Valilarning hikoyalaridan xulosa chiqarsak,

ularning hech biri uzoq muddatda rasmiy o‘qitish tizimida o‘zbek tilini o‘rgana olmadi, uning ta’siri ijobiy emas, ko‘proq motivatsiyasizlantirayotgan edi. Ular bu borada mavjud to‘siqlarni ko‘rsatib, ularni yengib o‘tish uchun ba’zi fikrlar va tavsiyalar berishdi. Ularning oilasi va ayniqsa kengroq muloqot doirasi ko‘p hollarda o‘zbek tili ko‘nikmalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan foydali bo‘ldi. Natijada, ularning barchasi o‘zbekcha gapirishdan ko‘ra yaxshiroq tushunishadi. Biroq ularning hammasi ham bu vaziyatdan mamnun emaslar va uni norasmiy / xususiy ta’lim olish imkoniyatlari orqali yaxshilashga harakat qilishadi. Lekin o‘zbek tilini bilmasliklari uchun uyaltirish ularning til o‘rganishiga va shu tilga bo‘lgan munosabatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu 12 ta qahramonimizda o‘zlarining o‘zbek millatiga mansubligi tufayli uyat tuyg‘usi ancha kuchliroq bo‘ladi. Teimouri [14] o‘z tadqiqotida ko‘rsatgani kabi, sharmandalik hissi odamning shaxsiyatiga tahdid qiladi, va uni himoya qilish uchun odam sharmandalikni keltirib chiqaruvchi omildan qochmoqchi bo‘ladi. Shunday qilib, sharmandalikni keltirib chiqaruvchi o‘zbek tilini o‘rganishdan voz kechiladi. Aybdorlik hissi esa teskari ta’sir qilishi ma’lum [14], bu Lola va Karima tajribalaridan aniq bo‘ldi. Shunday qilib, o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish natijasida 12 ta odamning kechinmalari muhitga (rasmiy va norasmiy o‘rganish tizimlari), shaxsiy xususiyatlarga (millat) va natijaga (o‘z-o‘zini yaxshi his qilish) bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Ushbu kechinmalar Shao va boshq. [2] ko‘rsatgani kabi, ularning qat’iyatliligiga (shaxsiy xususiyat) va motivatsiyasiga (natija) ham ta’sir qiladi. Albatta mazkur xulosalarning ishonchliligini oshirish maqsadida bu borada kengroq ko‘lamdagi tadqiqotlarni o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dewaele, J. M., 2010. Emotions in multiple languages. Basingstoke: Palgrave Macmillan.
2. Shao, K., Nicholson, L.J., Kutuk, G. and Lei, F., 2020. Emotions and instructed language learning: Proposing a second language emotions and positive psychology model. Frontiers in Psychology, *11*, p.2142.
3. Arens, A.K., Morin, A.J. and Watermann, R., 2015. Relations between classroom disciplinary problems and student motivation: Achievement as a potential mediator? Learning and instruction, *39*, pp.184-193.
4. Frenzel, A.C., Becker-Kurz, B., Pekrun, R., Goetz, T. and Lüdtke, O., 2018. Emotion transmission in the classroom revisited: a reciprocal effects model of teacher and student enjoyment. Journal of Educational Psychology, 110(5), p.628.
